

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi
O'QUVCHILARNING MA'NAVIY IMMUNOLOGIK
TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHNING MAZMUNI

JDPU Pedagogika nazariyasi

Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi

II bosqich tayanch doktoranti

Toshmamatova Shoxsanam Muzaffar qizi

Annotatsiya: Ushbu maqola ta'lim tizimida o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda ta'lim texnologiyasining ahamiyati to'g'risida fikrlar bayon etilgan. Dars jarayonida ta'lim texnologiyalarini qo'llash natijasida o'quvchilarning intellektual salohiyati va ilmiy-nazariy bilimi yanada mustahkamlanadi. Shuning bilan birgalikda, ta'limda axborot va kommunikatsiya texnologiyalar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yanada boyitish, takomillashtirishga olib keladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, axborot texnologiyalari, ta'lim texnologiyasi, informatika, innovatsiya.

Abstract: This article discusses the importance of intelligent technologies in the development of the intellectual potential of students in the education system. The use of smart technology in the classroom further enhances the intellectual potential and scientific and theoretical knowledge of the students. At the same time, the introduction of information and communication technologies and modern pedagogical technologies in education will lead to further enrichment and improvement of education.

Keywords: education, information technology, informatics, innovation, pedagogical technology.

Butun dunyoda bo'lgani singari yurtimizda ham ta'lim maqsadlari sohasida kechayotgan o'zgarishlar, insonning ijtimoiy olamga kirishini ta'minlashga qaratilgan global masalalarga mos keladi. Xususan, ta'lim tizimini

takomillashtirish hujjatlarida kompetentli yondashuv ta'lim mazmunini yangilashning muhim bir konseptual holati sifatida e'lon qilinmoqda.

Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilinishi, ya'ni ta'lim standartlari asosida ta'lim va tarbiya jarayonini qayta tashkil etishga kirishilgan bir paytda o'qituvchi faoliyatiga, uning pedagogik mahoratiga alohida e'tibor berilmoqda, chunki aynan o'qituvchi murabbiygina barkamol avlod bunyodkori sanaladi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun qayd etilgan tamoyillardan biri yoshlar orasidagi qobiliyatli va iste'dodlilarini aniqlash va ularning har tomonlama kamol topishini ta'minlash hisoblanadi.

Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida yoshlarning ijodiy iste'dodlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratish lozim o'qituvchilarning asosiy vazifalaridan biri yoshlarning tashabbuslar innovatsion g'oya va fikrlarini, iste'dod va iqtidorini o'z vaqtida ko'ra olish va uni ro'yobga chiqarish uchun ko'maklashishdan iboratdir.

Yoshlardan tashkilotchilik qobiliyati va boshqaruv mahoratini rivojlantirish orqali yuksak ma'naviyatli yetakchi yoshlarni tarbiyalash, ularni mamlakatimiz taraqqiyoti va uning istiqboli uchun yo'naltirish talab etiladi.

O'qituvchining so'nggi paytlarda oliygohlarda keng joriy qilinayotgan innovatsion texnologiyalarni qo'llash muammolari va uni hal etish istiqbollari dolzarb muammoga aylanmoqda. Buning sababi shuki, pedagogik faoliyatga xos bo'lgan kasbiy bilimga ega bo'lishi, mustaqil pedagogik faoliyatga va ijtimoiy munosabatlarga, shu jumladan pedagogik jamoa tarkibida ham tayyorlash va moslashtirish kerak. Kasbga yo'naltirib o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash, yaratish va ularni boshqarish, orqali ta'lim va tarbiyaning bugungi dolzarb vazifalarni hal qilib beradi. Shu boisdan ham pedagogik innovatsiyalarni izlab topish o'rganish, tahlil qilish orqali eng ko'p samara beradiganlarni tanlab olish va ularni amaliyotga qo'llash tartibini belgilash maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun o'qituvchi talabani faollashtiradigan, o'zi va o'rganuvchi uchun qulay bo'lgan yo'llarni, usul va uslublar, o'qitish shakllari va vositalarni izlaydi, ularni takomillashtiradi.

Hozirgi kunda bu tizimni yaratish yo'lida bir qator izlanishlar, sayharakatlar olib borilmoqda. Innovatsiyalar dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardir. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug'ilib, ta'lim mazmuni rivoji uchun istiqbolli hisoblanadi, shuningdek, umuman ta'lim tizmi rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Interfaollik ta'lim berish sohasida umuman yangi hodisa, bunga binoan ta'lim beruvchi: o'qituvchi, boshqa talabalar, ma'muriyat bilan faqat shaxsiy uchrashuv yo'li bilan emas, balki ta'lim jarayonining barcha sub'ektlari bilan faol o'zaro harakat qilishi mumkin; multimediali obyektlarni tahlil etish jarayonida ularning mazmuni, shakli, o'lchovi va rangini o'zgaruvchan boshqarish, ularni har tomondan ko'rib chiqish, shunga o'xshash boshqa harakatlarni bajarishni, eng ko'p ko'rgazmalilikka erishishda to'xtatish va xohlagan joyida yana ishga tushirishi mumkin.

Interfaollik daraja qancha yuqori bo'lsa, ta'lim berish jarayoni shuncha natijali bo'ladi. O'qitish vaziyatining dolzarbligi: Eng ko'p tarqalgan va xususiyatga ega bo'lgan ta'lim usullari quyidagilar hisoblanadi: suhbat, bahs, o'yin, keys-study, loyihalar usuli, muammoli usul, aqliy hujum va boshqalar hisoblanadi.

O'quv jarayonini tashkil etish, samarali natijaga erishish ko'p jihatdan to'g'ri, optimal metodni tanlashga bog'liq. Eng qulay va yuqori samara beruvchi metodni tanlashda o'qituvchi bir qancha omillarni xisobga olishi, ularni tahlil qilishi va shu taxlil asosida ma'lum vaziyatga mos tushuvchi metodni tanlash malakasiga ega bo'lishi talab etiladi. Bo'lajak o'qituvchilarda har bir dars uchun mos keluvchi eng qulay metodni tanlash malakasini shakllantirish o'ta muhim masala. Chunki to'g'ri tanlangan metod o'quv jarayonini samarali bo'lishga olib keladi.

Smart-texnologiyasi o'quvchilarni tajribalar o'tkazish, modellarni konstruksiyalash, musiqa va filmlarni mustaqil yaratish, o'z g'oyalarini amalga oshirish va mahsulot yaratishni rag'batlantiradi. O'qitishga bunday yondashuv bolalarga nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini samarali chog'ishtirish

imknini beradi. O'quvchilarning ijodkorligini oshiradi, yuqori malakali, zamon talabiga mos kadrlar tayyorlashda mustahkam poydevor bo'ladi.

Smart texnologiyalarini kelajakda mamlakatimiz ta'lim tizimiga joriy etish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi: texnologik yangilanishga ajratilgan vaqt (2020-2025 yillar) juda qisqa. Shu bois, "tezkor start" usulini qo'llash, ya'ni Smart education ta'lim muhiti talablarini o'rganib chiqish va mamlakatimiz ta'lim tizimiga joriy etishni tezlashtirish; respublikamizda turli fanlardan elektron resurslarni dunyo andozalariga mos, muvofiqlashtirilgan va tizimli ravishda yaratishni yo'lga qo'yish hamda imkoni boricha boshqa davlatlar bilan hamkorlikda umumiy ta'lim muhitiga moslab yaratish; dunyo bo'yicha yaratilgan boshqa ochiq resurslarni qayta yaratmasdan, ularning eng maqbullarini tarjima qilish va moslashtirish hamda ta'lim jarayoniga joriy qilish; ta'lim muassasalarini Smart education ta'lim muhiti texnik vositalari bilan ta'minlashni jadallashtirish.

Zamonaviy jamiyat kompyuter texnologiyalari va aloqa vositalarining rivojlanishi bilan ajralib turadigan, atrofdagi narsalar va qurilmalarni borgan sari "aqlli" qilib, hayotni yanada qulay, xavfsiz va qiziqarli qiladigan axborot jamiyatidir. Jamiyat va iqtisodiyotni rivojlantirishning ushbu bosqichi quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- jamiyat hayotida axborot, bilim va axborot texnologiyalarining rolini oshirish;
- axborot texnologiyalari, aloqa va axborot mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan kishilar sonining ko'payishi;
- telefon, radio, televideniye, internet, an'anaviy va elektron ommaviy axborot vositalaridan foydalanib, jamiyatni axborotlashtirishni kengaytirish;
- odamlarning samarali axborot almashinuvini, ularning dunyo axborot resurslaridan foydalanishini, axborot mahsulotlarini va xizmatlar ehtiyojlarini qondirishni ta'minlovchi global axborot makonini yaratish.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki bugungi kunda bir qator boshqa davlatlar Smart-ta'limni rivojlantirishga kirishdilar. Smart-jamiyatning modeli

zamonaviy axborot va tashkiliy tizimlar yordamida intellektual, yuqori texnologiyali, inson uchun qulay muhitni yaratishni nazarda tutadi. Borgan sari inson yangi bilimlarni egallab boradi va u bu bilimlarni axborot texnologiyalarisiz qo'lay olmay qoladi. Ta'limning asosiy maqsadlaridan biri Smart-texnologiyalar asosida zamonaviy ta'lim tizimini shakllantirish orqali sifatli ta'limga erishishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. // Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T. Sharq. 1997.
2. Usmanova G.A. Tajriba-tadqiqot maydonlarida ilg'or pedagogik texnologiyalaridan foydalanish. // Jurnal Ta'lim texnologiyalari №1, -2012, -b.29-
3. Qosimova N.D. O'smirlar ijtimoiylashuvida ibrat ijtimoiy psixologik xususiyatlarining ahamiyati: Ped.f.n. ... dis.avtoref: - T.: TDPU, 2010. – 26 b.
4. Umarova M.M. O'smirlarda oilaviy qadriyatlar to'g'risidagi tasavvurlar shakllanishining ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlari. Psixol. fan. nom. dis. avtoreferati: 19.00.05. – T.: O'zMU, 2004. –27-b.